

SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.

Korxona va tashkilotlar soni


(2022 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	56 588	116,5 %
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	52 480	113,0 %
Yangi tashkil etilgan korxonalar (yanvar-sentabr)	8 556	101,3 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'mida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni


(tashkiliy-huquqiy shakllar taqnifi bo'yicha
2022 - yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(2022- yil 1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda)





*Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,8 foizga oshdi***




■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


7




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,0 foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan 8,1 foizga oshdi




Xususiy korxonalar




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1 - oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar




Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 11 131 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1802 taga yoki 19,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 10 209 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 262 taga yoki 14,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 864 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 23,1 % ga kamayganini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning tumanlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 694 tani tashkil etib, ulardan 679 tasi yoki 97,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 38 taga yoki 6,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 54 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil yanvar- sentabr oylarida, birlikda)



**Samarqand viloyatida MDH davlatlarining kapitali
ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

12

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>Qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
<i>Samarqand viloyati</i>	679	443	236
<i>Afg'oniston</i>	50	20	30
<i>Xitoy Xalq Respublikasi</i>	100	72	28
<i>Eron Islom Respublikasi</i>	37	23	14
<i>Qozog'iston Respublikasi</i>	18	14	4
<i>Janubiy Koreya Respublikasi</i>	44	31	13
<i>Rossiya Federatsiyasi</i>	101	65	36
<i>Tojikiston Respublikasi</i>	16	11	5
<i>Turkiya Respublikasi</i>	115	68	47
<i>Amerika Qo'shma Shtatlari</i>	21	16	5
<i>Boshqalar</i>	177	123	54

Viloyatda 2022-yil 1-oktabr holatiga xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 679 tani tashkil etadi, shundan 443 tasi qo'shma korxonalar, 236 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi. Davlatlar kesimida ko'rib chiqqanda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Turkiya Respublikasi 115 ta, shundan 68 tasi qo'shma korxonalar, 44 tasi esa xorijiy korxonalar, Xitoy Xalq Respublikasi 100 ta, shundan 72 tasi qo'shma korxonalar, 28 tasi esa xorijiy korxonalar, Rossiya Federatsiyasi 101 ta, shundan 65 tasi qo'shma korxonalar, 36 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2022 - yil 1 – oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 – oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdiridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Turkiya Respublikasi 16,9 %, Xitoy Xalq Respublikasi 15,0 %, Rossiya Federatsiyasi 15,0 %, Afg'oniston 7,4 %, Janubiy Koreya Respublikasi 6,5 % va Amerika Qo'shma Shtatlari 3,1 % ga to'g'ri kelmoqda.

14


**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022 - yil 1 – oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Samarqand viloyati	679	443	236
Samarqand sh	309	179	130
Kattaqo'rg'on sh	24	20	4
tumanlar:			
Oqdaryo	30	23	7
Bulung'ur	24	12	12
Jomboy	48	35	13
Ishtixon	18	12	6
Kattaqo'rg'on	16	10	6
Qo'shrabot	22	10	12
Narpay	5	3	2
Payariq	18	11	7
Pastdarg'om	34	25	9
Paxtachi	10	6	4
Samarqand	41	31	10
Nurobod	13	12	1
Urgut	54	44	10
Toyloq	13	10	3

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

15




2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 56 588 ta soniga nisbatan hududlarlagi ulushi, Samarqand shahrida (28,2%), Urgut (8,5%), Pastdarg'om (8,5%), Samarqand (7,5%), Ishtixon (5,4%), Payariq (5,2%), Kattaqo'rg'on (5,2%), Oqdaryo (4,4%), Toyloq (4,3%), Bulung'ur (4,2%), Jomboy (4,0%), Kattaqo'rg'on shahri (3,2%), Narpay (3,2%), Nurobod (3,2%), Paxtachi (2,7%) va Qo'shrabot (2,3%) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)


2022- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 8 556 ta soniga nisbatan hududlarlagi ulushi, Samarqand shahrida (24,6%), Pastdarg'om (8,7%), Urgut (8,5%), Samarqand (7,7%), Ishtixon (5,9%), Oqdaryo (5,3%), Kattaqo'rg'on (5,5%), Payariq (4,6%), Toyloq (4,7%), Bulung'ur (5,0%), Jomboy (4,3 %), Nurobod (3,9%), Narpay (3,1%), Paxtachi (2,9%), Kattaqo'rg'on shahri (3,0%) va Qo'shrabot (2,3%) tumanlari ulushiga tegishli.



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar

(2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

16



2022- yilning yanvar-sentabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda jami 1 864 korxonalarning viloyatga nisbatan ulushi, Samarqand shahrida (16,2 %), Kattaqo'rg'on (12,8%), Pastdarg'om (10,2%), Payariq (9,8%), Samarqand (7,6%), Bulung'ur (7,4%), Urgut (5,6%), Jomboy (5,1%), Oqdaryo (4,5%), Ishtixon (4,5%), Toyloq (4,8 %), Narpay (4,0 %), Paxtachi (3,6 %), Qo'shrabot (2,0%), Kattaqo'rg'on shahar (1,5 %), va Nurobod (0,4 %) tumanlari ulushga ega.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2022– yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnomasi tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestridera mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 - yil 24 - avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the official website of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main header reads 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. The navigation bar includes links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. A dropdown menu is open under 'INTERAKTIV XIZMATLAR', showing options like 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Usulby materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxona pasporti'. The right sidebar lists 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' such as 'Aholini ro'yxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-relizlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashriar – statistika haqida', 'Usulby materiallari', and 'Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Samarqand viloyati statistika boshqarmasi

Statistik registrlarni yuritish

bo'limi

Tel.: 66 235-14-42